


JOURNAL OF

NATURAL SCIENCE

<https://natscience.jdpu.uz>

2025 /№1 (18)



Chemistry
Biology
Geography

<u>TAHRIR HAY’ATI</u>	<u>TAHRIRIYAT A’ZOLARI</u>
Bosh muharrir Yaxshiyeva Z.Z. k.f.d., professor	<u>Bosh muharrir</u> Yaxshiyeva Zuhra Ziyatovna k.f.d., professor <u>Tahririyat a’zolari:</u> 1. Yaxshiyeva Z.Z. – k.f.d., professor JDPU. 2. Shilova O.A. – k.f.d., professor I.V. Grebenshikov nomidagi Rossiya FA Silikatlar kimyosi instituti. 3. Markevich M.I. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 4. Elbert de Josselin de Jong – professor, Niderlandiya. 5. Anisovich A.G. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 6. Kodirov T. – k.f.d., professor TKTI. 7. Abduraxmonov E. – k.f.d., professor SamDU. 8. Nasimov A. – k.f.d., professor SamDU. 9. Smanova Z.A. – k.f.d., professor O’zMU. 10. Mavlonov X. – b.f.d., professor JDPU. 11. Usmanova X.U. – professor URUXU. 12. Qutlimurodova N.X. – k.f.d., dotsent O’zMU. 13. Nuraliyeva G.A. – dotsent O’zMU. 14. Sultonov M.M. – k.f.d., dotsent JDPU. 15. Xudanov U.O. – t.f.n., dotsent JDPU 16. Murodov K.M. – dotsent SamDU. 17. Abduraxmonov G’.– dotsent O’zMU. 18. Yangiboyev A. – k.f.f.d., (PhD), dotsent O’zMU. 19. Xakimov K.M. – g.f.n., professor v/b. JDPU. 20. Azimova D.E. – b.f.f.d., (PhD) dotsent. JDPU. 21. G’o’dalov M.R. – g.f.f.d., (PhD), dotsent JDPU. 22. Ergashev Q.X. – dotsent TDPU. 23. Orziqulov B. – k.f.f.d., (PhD) O’zMU. 24. Kutlimurotova R.H.-SVMUTF 24. Xamrayeva N. – dotsent JDPU. 25. Rashidova K. – dotsent JDPU. 26. Inatova M.S. – dotsent JDPU.
Muassasa Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Jurnal 4 marta chiqariladi (har chorakda)	
Jurnalda chop etilgan ma’lumotlar aniqligi va to’g’riligi uchun mualliflar mas’ul.	
Jurnaldan ko’chirib bosilganda manbaa aniq ko’rsatilishi shart.	

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Tabiiy fanlar Journal of Natural Science-elektron jurnali

<https://natscience.jdpu.uz>

**EUPHORBIA L. TURKUMIGA BAG’ISHLANGAN TADQIQOTLARNING
TAHLILI**

Abdullayeva Nilufar Sag’dullayevna- dotsent

nabdullayeva@gmail.com

Raxmatullayeva Gulshoda Bahodir qizi-talaba

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada Euphorbia L. turkum turlarining O‘zbekiston florasida olib borilgan floristik va geobotanik tadqiqotlar to‘g‘risida tahlillar keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: flora, turkum, tur, Euphorbia, dorivor, mahalliy flora, senopopulyatsiya

Аннотация. В статье представлен анализ флористических и геоботанических исследований видов Euphorbia L. во флоре Узбекистана.

ключевые слова: флора, род, вид, молочай, лекарственный, местная флора, ценопопуляция

Abstract. The article presents an analysis of floristic and geobotanical studies of Euphorbia L. species in the flora of Uzbekistan.

Keywords: flora, genus, species, Euphorbia, medicinal, local flora, senopopulation

O‘zbekistonda hozirga qadar Euphorbia L. turkumiga oid aniq maqsadli tadqiqotlar olib borilmagan. Olib borilgan asosiy tadqiqotlar kompleksli florani o‘rganish yoki malum bir hududni o‘simliklar qoplami tadqiq etilganda flora konspektida keltirilgan shuningdek, geobotanik tadqiqotlarda o‘simlik jamoasi qanday holatda ekanligi haqida malumotlar berilgan.

Mazkur turkum turlari to‘g‘risidagi batafsil ma'lumotlar O‘rta Osiyo va O‘zbekiston hududiga tegishli ilmiy ishlarda keltirilmagan. Ko‘p tomli “O‘zbekiston florasida” monografiyasida Euphorbiaceae oilasining konspekti V.K. Pazyi tomonidan berilgan unga ko‘ra, turkumga oid 33 tur aks etgan [7].

Turkum turlari to‘g‘risida ma'lumotlar faqat Euphorbiaceae oilasi, mahalliy floralari va o‘simlik qoplamlariga tegishli ishlarda keltiriladi. Bular quyidagilar;

O’rta Osiyo o’simlikliklarining kritik konspekti monografiyasida 72 tur (Nasimova, 1983), Janubi-g’arbiy Tiyon-Shon florasiga bag’ishlangan akademik K. Tojibayevning doktorlik dissertatsiya ishida 12 tur (Tojibayev, 2010), Zomin qo’riqxonasi florasida 5 tur (Esankulov, 2012), Janubiy Qizilqum qoldiq tog’larida olib borilgan A. Batoshovning tadqiqot ishida 7 tur (2016), Boysun botanik-geografik rayoni florasiga bag’ishlangan O.T Turginovning ishida 21 tur (2017) turkum turlari bayon etilgan. Molguzar tizmasining florasiga bag’ishlangan D. Azimovanning tadqiqot ishida *Euphorbia* turkumi yetakchi sifatida keltirilgan va *Euphorbia sororia* O’zbekiston florasiga uchun yangi ekanligi bayon etilgan (Azimova, 2018) [6; 9;].

Turkumning ko’pgina vakillari o’zining kamyobliligi va endem turlar sirasiga kirishi bilan xarakterlanadi. O’zbekiston Qizil Kitobining so’nggi nashrida *Euphorbia densiuscula* Popov., *Euphorbia kudrjashevii* (Pazij) Prokh., *Euphorbia densiusculiformis* (Pazij) Botsch., *Euphorbia triodonta* Prokh., *Euphorbia sclerocyathium* Korovin et Rorov. uchrashi qayd etiladi [3;].

Mahalliy floralarda olib borilgan floristik va geobotanik tadqiqotlarda turkum turlari to’g’risida ro’yxatlar va ularning tarqalishi hamda boshqa xususiyatlari yoritilgan bo’lib, bulardan, *Euphorbia* turlarining o’rni, senopopulyatsiyalari va ahamiyati to’g’risida ma’lumotlar keltirib o’tiladi [1;4; 5; 8;].

O’rta Osiyo mamlakatlari va O’zbekiston respublikasi hududida turkum vakillari bir tekisda tarqalmagan. Mahalliy floralarga tegishli ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, *Euphorbia* turkumining O’zbekiston respublikasida (1969) 33 tur, Qrg’iziston Respublikasida (1957) 28 tur, Tojikiston Respublikasida (1981) 29 tur, Qozog’iston Respublikasida (2001) 61 tur, Turkmaniston Respublikasida (1950) 27 turi uchraydi [11; 12; 13; 14;].

***Euphorbia* L. turkumi turlarining floralardagi tahlili (2025 y)**

O’zbekiston (maydoni 447 000 km ²)	Qozog’iston (maydoni 2724 902)	Qirg’iziston (maydoni 198 500 km ²)	Tojikiston (maydoni 142 000 km ²)	Turkmaniston (maydoni 488 100 km ²)
--	--------------------------------------	---	---	---

	km ²)			
Turlar soni				
33	61	28	29	27

Jadvalda *Euphorbia* turkumi turlarining O‘zbekiston florasida va yondosh floralarda tarqalishi tahlili keltirildi. Unda ko‘rishimiz mumkinki, turkum turlari eng ko‘p Qozog‘iston va O‘zbekiston respublikalarida tarqalgan.

Turkum turlarining dorivorlik xususiyatlarini o‘rganish olimlar nazaridan chetda qolmadi. XX asr oxirlarida T.Yoshida, T.Okuda va boshqa bir qator yapon olimlari tomonidan Euphorbiaceae oilasiga kiruvchi o‘simliklarning tanninlarini o‘rganish ishlari jadal olib borilib, ulardan bir qatorda yangi dimer va oligomer ellagotanninlar ajratib olingan. Tanninlarning antioksidantlik xossasiga hamda viruslarga, shu jumladan, OITS ga qarshi samarali faollikka egaligi aniqlangan[2; 9; 15; 16;].

O‘zbekiston fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo institutida turkum turlarining dorivorlik xususiyatlari o‘rganilib, ulardan gripp va OITS ga qarshi ta’sir ko‘rsatuvchi 8 ta yangi modda ajratib olingan. Bu turlar quyidagilar: *Euphorbia sequieriana* Neck., *Euphorbia rosularis* (A.Teod), *Euphorbia helioscopia* L., *Euphorbia turkestanica* Regel, *Euphorbia jaxartica* Prokh., *Euphorbia triodonta* Prokh., *Euphorbia kudrjashevii* (Pazij) Prokh., *Euphorbia glomerulans* Prokh.[1;].

“O‘zbekistonning dorivor o‘simliklari: ularning o‘tmishi, buguni va kelajagi” deb nomlangan O.Q. Xojimatovning maqolasida *Euphorbia jaxartica* Prokh.–Jonon (o‘zb.). o‘simligining dorivorligi keltirilgan. Yani, bu o‘simlik ildizi qaynatmasi kuchli surgi dori xususiyatlarga ega. Yangi uzilgan o‘simlikning sutli sharbati yiringli yaralarni, husunbuzarni yo‘q qiladi. Qo‘tirni va xar hil toshmalarni davolaydi. Quritilgan va maydalangan ildizi xavfli yaralarni hamda sifilisni davolaydi[17;].

Adabiyotlar

1. Батошов А. Флора останцов юго-восточного Кызылкума Дисс...д.б.н. Ташкент, 2016 С.183-184.
2. Курмиков А.Г., Белолопов И.В. Декорастущие лекарственные растения Узбекистана. – Ташкент: Extremum Press, 2012. – 278 с
3. Красная Книга Республики Узбекистан: Ташкент. 2019.- С. 176-181.
4. Камелин Р. В. К познанию флоры Нуратинских гор // Бот. журн., 1973. Т. 58, № 5. С. 625–637.
5. Камелин Р. В. Кухистанский округ горной Средней Азии. Ботанико-географический анализ. Л.: Наука, 1979. 166 с.
6. Насимова Т.Сем. Euphorbiaceae – молочайные // Определитель растений Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1983. – Т. 7. – С. 47–79.
7. Пазий В.К.Сем. Euphorbiaceae – молочайные // Флора Узбекистана. – Ташкент: Изд-во АН Узбекской ССР, 1959. – Т. 4. – С. 82–123.
8. Проханов Я. И. 1933. Систематический обзор молочаев Средней Азии. М.; Л.: ОНТИ; Гос. хим.-техн. изд-во. 241 с.
9. Растительные ресурсы СССР.– Л.: Наука, 1984 – 1996.
- 10.Тожибаев К. Ш., Н. Ю. Бешко, Х. Ф. Шомуродов Кадастр флоры Узбекистана: Навоийская область. – Ташкент: Издательство «Фан» АН РУз., 2019. – 216 с.
- 11.Флора Туркмении Б.К. Шишкин Т--V Ашхабад 1950 С-44-74.
- 12.Флора Киргизской ССР И.В. Никитина Т-VII Фрунзе 1957 с-515-539.
- 13.Флора Казахстана М.С. Байтенов. Родовой комплекс флоры Т-2. –Алматы 2001 «ҒЫЛЫМ» 131 с.
- 14.Флора Таджикистана Г.К. Кинзикаева Т-VI Ленинград 1981 С-437-472
- 15.Холматов Х.Х., Ахмедов У.А. «Фармакогнозия». – Тошкент: Ибн-Сино, 1995. – Б. 525.
- 16.Холматов Х.Х., Пратов Ў.П., М.Н. Маҳсумов Асоратсиз дори-дармонлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006. – 207.

17. Michiho, I. and Khojimatov, O. (2019) "Medical plants of Uzbekistan: their past, present and future, " Scientific Journal of Samarkand University: Vol. 2019. –P. 48-53.